IQRO JURNALI , IQRO JOURNAL, ИКРО ЖУРНАЛИ
ISSN:2181-4341| wordlyknowledge.uz/index.php/iqro
Volume 24. Issue 02. Noyabr ,2026

RAQAMLI SUVERENITET TUSHUNCHASI VA TA‘MINLASH MEXANIZMLARI

Maxmudova Shohsanam Ilhomjon qizi
Toshkent davlat yuridik universiteti
Xalqaro huquq va qiyosiy
huquqshunoslik fakulteti
3-kurs talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.24132912

Annotatsiya: Ushbu maqolada raqamli suverenitet tushunchasi, uning davlatlar va jamiyat hayotidagi o‘rni hamda O‘zbekistonda uni ta’minlash mexanizmlari keng tahlil qilinadi. Raqamli suverenitet milliy raqamli infratuzilma, ma’lumotlar oqimi, texnologik platformalar va foydalanuvchilar ma’lumotlari ustidan nazoratni o‘z ichiga oladi. Maqolada ma’lumotlarni lokalizatsiya qilish, milliy kiberxavfsizlik qonunchiligi, texnik infratuzilma, xalqaro hamkorlik va platformalarni boshqarish orqali suverenitetni mustahkamlash yondashuvlari ko‘rib chiqiladi. Global tajribalar, jumladan Yevropa Ittifoqi GDPR va boshqa rivojlangan davlatlardagi huquqiy mexanizmlar tahlil qilib, O’zbekiston sharoitida raqamli makon va fuqarolarning raqamli huquqlarini muvozanatli himoya qilish zaruriyatini ochib berishga harakat qilinadi hamda barqaror raqamli rivojlanish uchun yo‘l xaritasini taklif qiladi.

Kalit so’zlar: Raqamli suverenitet, ma’lumotlarni lokalizatsiya qilish, kiberxavfsizlik, milliy infratuzilma, fuqarolarning raqamli huquqlari, texnologik mustaqillik, xalqaro hamkorlik, platforma boshqaruvi.

I. Kirish

Bugungi kunda davlatlar o'z chegaralaridan tashqarida ham mavjud bo'lgan raqamli infratuzilma, ma'lumotlar oqimi va texnologik platformalar kabi sohalarda yangi mustaqillik talabiga duch kelmoqda. Ana shu zaruratdan kelib chiqqan holda, "raqamli suverenitet" (digital sovereignty) tushunchasi so'nggi o'n yil ichida xalqaro siyosiy va huquqiy muhokamalarda markaziy o'ringa chiqdi.1

Raqamli suverenitetga yagona, umumqabul qilingan ta'rif hali mavjud emas. Berlin Ijtimoiy Fanlar Markazi (WZB) tadqiqotchilari Julia Pohle va Thorsten Thiel ushbu tushunchani "raqamli texnologiya va infratuzilma ustidan o'z-o'zini boshqarish hamda qaror qabul qilish qobiliyatini oshirishga intilish, shuningdek tashqi raqamli xizmatlarga bog'liqlikni kamaytirish" sifatida ta’riflaydi.2 Evropa Taraqqiyot Siyosati Markazi (ECDPM) esa raqamli suverenitetni uch qatlam orqali tushuntiradi: jismoniy qatlam (infratuzilma va texnologiya), kod qatlami (standartlar, qoidalar va loyihalash) hamda ma'lumotlar qatlami (egachilik, oqimlar va foydalanish).3

Raqamli suverenitet talablari ikki darajada namoyon bo'ladi: birinchisi — davlat yoki tashkilotlarning jamoa sifatida raqamli o'z-o'zini belgilash qobiliyati; ikkinchisi — fuqarolar va texnologiya foydalanuvchilarining shaxsiy avtonomiyasi. Hozirgi kunda raqamli suverenitetning dolzabrligi global raqamli makon ko'plab davlatlar tomonidan emas, balki bir nechta yirik texnologiya korporatsiyalari tomonidan boshqarilayotganida namoyon bo’ladi. Bu kabi korporatsiyalar foydalanuvchi ma'lumotlarini tijorat maqsadlarida ishlatib, davlatlarning an'anaviy

suverenitetini cheklashga qodirligi davlatlarning ma’lumotlar yuzasidan amalga oshirishi lozim bo’lgan siyosatning muhim ekanini namoyon etadi. O’zbekiston ham ushbu global muammodan chetda emas: 2023 yil yangi tahrirdagi qabul qilingan Konstitutsiyamiz asosiy manbaa sifatida, shuningdek, "Axborotlashtirish to'g'risida"gi (2003) va "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi (2022) qonunlar qabul qilingani milliy raqamli suverenitetni mustahkamlashga qaratilgan dastlabki qadamlar sifatida baholanishi mumkin. 1 World Economic Forum, "What is digital sovereignty and how are countries approaching it?" (10 January 2025), https://www.weforum.org/stories/2025/01/europe-digital-sovereignty/. 2 Julia Pohle and Thorsten Thiel, "Digital sovereignty," Internet Policy Review, vol. 9, no. 4 (17 December 2020), p. 3, https://doi.org/10.14763/2020.4.1532. 3 European Centre for Development Policy Management (ECDPM), "Global approaches to digital sovereignty: competing definitions and contrasting policies," Discussion Paper No. 344 (2023), p. 7, https://ecdpm.org/application/files/7816/8485/0476/Global-approaches-digital-sovereignty-competing-definitions-contrasting-policy-ECDPM-Discussion-Paper-344-2023.pdf.

Ushbu maqolada raqamli suverenitet tushunchasining turli ilmiy va normativ ta'riflari tahlil qilinib, davlatlar tomonidan uni ta'minlashning asosiy mexanizmlari — qonunchilik, texnik infratuzilma, xalqaro hamkorlik va ma'lumotlarni lokalizatsiya qilish — ko'rib chiqiladi. Yevropa Ittifoqi tajribasi (xususan, GDPR reglamenti) hamda O'zbekiston milliy qonunchiligi o'rtasidagi munosabat ham alohida o'rganiladi.

II. Metodologiya

Mazkur maqolada raqamli suverenitetning tushunchasi, uni ta'minlashning huquqiy mexanizmlari hamda xalqaro standartlar bilan milliy qonunchilik o'rtasidagi muvofiqlashuv o'rganiladi. Tadqiqotda qiyosiy-huquqiy tahlil metodi qo'llanilgan bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining, "Kiberxavfsizlik to'g'risida"gi va "Elektron tijorat to'g'risida"gi qonunlar xalqaro hujjatlar bilan o'zaro taqqoslangan. Bunda Yevropa Ittifoqining GDPR reglamenti, Kiberjinoyatchilik bo'yicha Budapesht Konventsiyasi hamda Jahon Iqtisodiy Forumining raqamli suverenitet bo'yicha tahliliy hujjatlari asosiy manba sifatida ishlatilgan. Tizimli tahlil asosida raqamli suverenitetni ta'minlashning asosiy mexanizmlari — ma'lumotlarni lokalizatsiya qilish, milliy kiberxavfsizlik qonunchiligi, xalqaro hamkorlik shartnomalari va platforma boshqaruvi — ko'rib chiqiladi hamda ularning amaliy samaradorligi baholanadi. Tadqiqot natijasida xalqaro standartlar va milliy qonunchilik uyg'unligi baholanib, O'zbekistonda raqamli suverenitetni mustahkamlash bo'yicha takliflar ko'rib chiqiladi.

III.Natijalar

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, raqamli suverenitetni ta’minlashga qaratilgan global faollik so‘nggi yillarda sezilarli darajada jadallashgan. Xususan, 2017 yilda dunyo miqyosida 35 ta davlatda jami 67 ta ma’lumotlarni lokalizatsiya qilish mexanizmi amal qilgan bo‘lsa, 2021 yilga kelib ushbu ko‘rsatkich 62 ta davlatda 144 ta mexanizmga yetgan. Hozirgi davrda esa davlatlarning qariyb 75 foizi ma’lumotlar lokalizatsiyasiga oid normativ-huquqiy qoidalarni joriy etgan bo‘lib, bu holat mazkur institutning global darajada keng ommalashayotganini ko’rsatadi.4

Shu bilan birga, davlatlarning raqamli suverenitetni ta’minlash borasidagi yondashuvlari o‘zaro sezilarli darajada farqlanadi. Masalan, Xitoy ushbu sohada eng qat’iy tartibga solish modelini qo‘llaydi. Xususan, Kiberxavfsizlik qonuni(2017 yil), Ma'lumotlar xavfsizligi qonuni hamda PIPL birgalikda fuqarolarning shaxsiy ma’lumotlarini mamlakat hududidan tashqariga

chiqarishni qat’iy cheklaydi va ularni davlat ichida saqlashni talab qiladi.Rossiya esa 2015 yildan boshlab shaxsiy ma’lumotlarni milliy serverlarda saqlash majburiyatini joriy etgan. Mazkur talabni buzgan kompaniyalar uchun 31 000 dan 280 000 AQSh dollarigacha miqdorda moliyaviy jarimalar nazarda tutilgan bo‘lib, bu mexanizm davlat nazoratining kuchaytirilganini anglatadi.5 Boshqa tomondan, Yevropa Ittifoqi nisbatan muvozanatli va huquqiy standartlarga asoslangan yondashuvni tanlagan. Jumladan, GDPR orqali ma’lumotlarni himoya qilish bo‘yicha yagona va majburiy standartlar joriy etilgan bo‘lib, unda asosiy e’tibor ma’lumotlar subyektining huquqlarini himoya qilishga qaratilgan, lokalizatsiya esa mutlaq talab sifatida belgilanmagan.6

Real keyslar orasida 2024 yilda Braziliya va X (Twitter) o‘rtasida yuzaga kelgan nizoli holat alohida ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Mazkur ish raqamli suverenitet prinsiplarining amaliy qo‘llanilishini yaqqol namoyon etuvchi muhim precedent sifatida baholanadi.

2024 yil 30 avgustda Braziliya Oliy sudi tomonidan X platformasining mamlakat hududida faoliyatini vaqtincha cheklash (bloklash) to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Ushbu qarorning qabul qilinishiga bir nechta asosiy omillar sabab bo‘lgan. Xususan, platforma egasi Elon Musk Braziliya qonunchiligida belgilangan talabga muvofiq mamlakat hududida rasmiy vakil tayinlash majburiyatini bajarmagan. 4 Immuta, "Data Localization: A Complete Overview" (January 2026), https://www.immuta.com/blog/data-localization/; Captain Compliance, "Data Localization Laws By Country" (June 2024). 5 Immuta, "Data Localization: A Complete Overview" (January 2026), https://www.immuta.com/blog/data-localization/ 6 Regulation (EU) 2016/679 (GDPR), 44–46-moddalar, https://gdpr-info.eu. Bundan tashqari, sud qarorlariga zid ravishda dezinformatsiya tarqatgan ayrim akkauntlarni bloklash bo‘yicha ko‘rsatmalar ijro etilmagan hamda kompaniya zimmasiga yuklatilgan 18,3 million real (taxminan 3,33 million AQSh dollari) miqdoridagi moliyaviy jarimalar o‘z vaqtida to’lanmagan. Sud qarorida alohida ta’kidlanganidek, Elon Muskning mazkur harakatlari davlat suverenitetiga, xususan sud hokimiyati vakolatlariga nisbatan hurmatsizlik sifatida baholangan. Sud organi uning o‘zini milliy yurisdiksiyalardan ustun turuvchi, ya’ni transmilliy huquqiy majburiyatlardan mustasno subyekt sifatida tutayotganini keskin tanqid qilgan. Keyinchalik, vaziyatni huquqiy yo‘l bilan tartibga solish maqsadida X kompaniyasi tomonidan qariyb 5,2 million AQSh dollari miqdoridagi jarimalar to‘landi hamda Braziliyada rasmiy vakil tayinlandi. Shu asosda 2024 yil 8 oktyabrda platformaga qo‘yilgan cheklovlar bekor qilindi va uning faoliyati qayta tiklandi.7

Mazkur keys raqamli suverenitet konsepsiyasining amaliy mazmunini ochib berishda muhim o‘rin tutadi. U shuni ko‘rsatadiki, hatto global miqyosda faoliyat yurituvchi yirik texnologik kompaniyalar ham muayyan davlat hududida faoliyat olib borar ekan, o‘sha davlatning milliy qonunchiligi va sud qarorlariga rioya etishi shart. Shu jihatdan, ushbu holat davlatlarning raqamli makondagi yurisdiksiya doirasini mustahkamlash va transmilliy platformalar ustidan huquqiy nazoratni ta’minlash borasida muhim precedent sifatida e’tirof etiladi.

IV.Muhokama

Raqamli suverenitet zamonaviy huquqiy va siyosiy diskursda davlat suverenitetining yangi bosqichi sifatida talqin etilmoqda. Mazkur tushuncha, avvalo, davlatning o‘z raqamli infratuzilmasi, axborot resurslari, ma’lumotlar oqimi hamda kibermakon ustidan mustaqil va samarali nazorat o‘rnatish qobiliyatini anglatadi. Shu bilan birga, u nafaqat texnologik yoki ma’muriy boshqaruv masalasi, balki davlat 7 NPR, "Brazil starts blocking X amid dispute with Elon Musk" (30 August 2024), https://www.npr.org/2024/08/30/nx-s1-5096220/. hokimiyatining

raqamli muhitdagi yurisdiksiyasini belgilovchi kompleks huquqiy institut sifatida namoyon bo‘ladi.

Julia Pohle va Thorsten Thiel tomonidan ilgari surilgan konseptual yondashuvga ko‘ra, raqamli suverenitet an’anaviy davlat suverenitetining raqamli makonga transformatsiyasi sifatida qaraladi. Ular ushbu tushunchani ikki o‘zaro bog‘liq darajada tahlil qiladi: birinchidan, davlatning kollektiv subyekt sifatida o‘zini o‘zi boshqarish va strategik qarorlar qabul qilish imkoniyati; ikkinchidan esa fuqarolarning shaxsiy raqamli avtonomiyasi, ya’ni ularning o‘z ma’lumotlari ustidan nazorat qilish, maxfiylikni ta’minlash va raqamli huquqlarini amalga oshirish darajasi. Mazkur ikki o‘lchovning uyg‘unligi raqamli suverenitetni faqat davlat markazlashgan tushuncha sifatida emas, balki ko‘p qatlamli ijtimoiy-huquqiy fenomen sifatida talqin qilish imkonini beradi.8

Shu nuqtai nazardan qaralganda, raqamli suverenitetni davlat suverenitetidan ajratilgan holda ko‘rib chiqish mumkin emas. Chunki global raqamli makon sharoitida davlat chegaralari endilikda faqat geografik hudud bilan emas, balki ma’lumotlar oqimi, axborot infratuzilmasi va tarmoq platformalari orqali ham belgilanadi. Natijada, davlatlar o‘z yurisdiksiyasini nafaqat fizik hududda, balki virtual makonda ham ta’minlashga intilmoqda.

Xalqaro huquqshunos Margarita Robles-Carrillo ushbu masalaga nisbatan differensial yondashuvni taklif etadi. Uning ta’kidlashicha, demokratik siyosiy tizimlarga ega davlatlar raqamli suverenitetni, avvalo, fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini — xususan, shaxsiy hayot daxlsizligi, axborotdan erkin foydalanish va ma’lumotlarni himoya qilish huquqlarini mustahkamlash vositasi sifatida talqin etadi. Aksincha, avtoritar yoki avtokratik boshqaruv shakliga ega davlatlar ushbu konsepsiyani ko‘proq axborot oqimlarini markazlashtirish, davlat nazoratini 8 Julia Pohle and Thorsten Thiel, "Digital sovereignty," Internet Policy Review, vol. 9, no. 4 (2020), p. 3–5, https://doi.org/10.14763/2020.4.1532. kuchaytirish hamda senzura mexanizmlarini kengaytirish instrumenti sifatida qo‘llaydi.9

Mazkur farqlanish nafaqat nazariy darajada, balki amaliy siyosat va huquqiy mexanizmlarni tanlashda ham yaqqol namoyon bo‘ladi. Xususan, ayrim davlatlar ma’lumotlarni lokalizatsiya qilish, qat’iy kontent nazorati va platformalar ustidan to‘liq regulyator nazoratni joriy etsa, boshqalar ochiq internet tamoyillari bilan uyg‘unlashgan holda shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va shaffof boshqaruv standartlarini ustuvor deb biladi.

Umuman olganda, raqamli suverenitet zamonaviy global tizimda davlat va jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning yangi sifat bosqichini ifodalaydi. U bir vaqtning o‘zida ham davlatning strategik manfaatlarini himoya qilish, ham fuqarolarning raqamli huquqlarini ta’minlash o‘rtasidagi murakkab muvozanatni talab qiluvchi ko‘p qirrali huquqiy kategoriya hisoblanadi.

Raqamli suverenitetni ta’minlash amaliyotida o‘zaro bog‘liq bo‘lgan bir qator institutsional va huquqiy mexanizmlar ajratib ko‘rsatiladi. Ularning orasida beshta asosiy yo‘nalish alohida ahamiyat kasb etadi.

Birinchidan, ma’lumotlarni lokalizatsiya qilish mexanizmi davlat hududida yaratiladigan yoki qayta ishlanadigan ma’lumotlarni milliy serverlarda saqlash majburiyatini nazarda tutadi. Ushbu yondashuv davlat yurisdiksiyasini mustahkamlash, ma’lumotlar ustidan nazoratni ta’minlash hamda axborot xavfsizligini oshirishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, milliy qonunchilikni shakllantirish muhim omil hisoblanadi. Kiberxavfsizlik, shaxsiy ma’lumotlarni himoya qilish va

elektron tijoratni tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar raqamli makonda huquqiy aniqlik va barqarorlikni ta’minlab, davlat suverenitetining normativ asosini yaratadi. 9 Margarita Robles-Carrillo, "Sovereignty vs. Digital Sovereignty," Journal of Digital Technologies and Law, vol. 1, no. 3 (2023), p. 678, https://doi.org/10.21202/jdtl.2023.29.

Uchinchidan, texnik infratuzilmani rivojlantirish orqali mustaqil raqamli muhit shakllantiriladi. Bu jarayonga milliy internet segmentlari, jumladan .uz domen zonasi, davlat axborot tizimlari va ichki tarmoq resurslari kiradi. Mazkur infratuzilma davlatning texnologik mustaqilligini kuchaytiradi.

To‘rtinchidan, raqamli suverenitetni ta’minlashda xalqaro hamkorlik muhim o‘rin tutadi. Xususan, Xalqaro telekommunikatsiya ittifoqi doirasida qabul qilingan Rezolyutsiya 102 (Buxarest, 2022) hamda Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan ilgari surilgan Global Raqamli Kompakt (2024) kabi tashabbuslar davlatlar o‘rtasida ko‘p tomonlama muvofiqlashtirilgan yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi.10

Beshinchidan, raqamli platformalar ustidan nazorat mexanizmi alohida ahamiyatga ega. Ushbu yondashuv xorijiy texnologik kompaniyalar faoliyatini milliy qonunchilik talablariga moslashtirishni nazarda tutadi va shu orqali davlatning raqamli makondagi yurisdiksiyasini amalda ta’minlaydi.

Xalqaro darajada raqamli suverenitetni mustahkamlashga qaratilgan huquqiy mexanizmlar bosqichma-bosqich shakllanib bormoqda. Xususan, Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining kiberxavfsizlikka oid rezolyutsiyalari davlatlarning kibermakondagi xulq-atvorini tartibga soluvchi umumiy normalarni ishlab chiqishga xizmat qilmoqda. Jumladan, Rossiya tashabbusi bilan ilgari surilgan “Axborot va telekommunikatsiya sohasidagi rivojlanish” rezolyutsiyasi doirasida Ochiq Ishchi Guruh (OEWG) tashkil etilishi davlatlar o‘rtasida ishonchni mustahkamlash va umumiy qoidalarni shakllantirishga yo‘naltirilgan muhim qadam bo’ldi.11 Shu bilan birga, Xalqaro telekommunikatsiya ittifoqi ning Rezolyutsiya 102 (2022) internet boshqaruvi masalalarida davlatlarning rolini aniqlashtirib, global 10 ITU Resolution 102 (Rev. Bucharest, 2022); UN General Assembly, Global Digital Compact, adopted at Summit of the Future (September 2024). 11 Association for Progressive Communications, "UN General Assembly adopts record number of resolutions on internet governance," https://www.apc.org/en/news/un-general-assembly-adopts- record-number-resolutions-internet-governance-and-policy-mixed. raqamli boshqaruvda suverenlik va ko‘p tomonlama boshqaruv o‘rtasidagi muvozanatni izlashga xizmat qiladi.12

Milliy darajada O‘zbekiston raqamli suverenitetni huquqiy jihatdan mustahkamlash yo‘lida tizimli choralarni amalga oshirmoqda. Shu asosda “Raqamli O‘zbekiston — 2030” strategiyasi (PF-6079, 2020) qabul qilinib, unda raqamli infratuzilmani rivojlantirish, elektron hukumatni kengaytirish hamda davlat funksiyalarini raqamlashtirish orqali boshqaruv samaradorligini oshirish maqsad qilingan.13Biroq, mavjud huquqiy bazani tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, raqamli suverenitetning ayrim elementlari yetarli darajada kompleks shakllanmagan.

Xususan, “Kiberxavfsizlik to‘g‘risida”gi va “Elektron tijorat to‘g‘risida”gi qonunlar muhim institutsional asos yaratgan bo‘lsa-da, ular asosan xavfsizlik va iqtisodiy munosabatlarni tartibga solishga qaratilgan. Fuqarolarning shaxsiy ma’lumotlari ustidan nazorati va raqamli huquqlarini kafolatlashga doir normalar esa yetarli darajada tizimlashtirilmagan.

Bu jihat Yevropa Ittifoqi ning GDPR tajribasi bilan solishtirganda yaqqol namoyon bo‘ladi. Mazkur reglamentda ma’lumotlarni o‘chirish, qayta ishlashni cheklash va ko‘chirish huquqlari aniq belgilangan bo‘lib, u raqamli suverenitetni faqat davlat nazorati emas, balki shaxsiy huquqlarni ta’minlash orqali amalga oshirish modelini ifodalaydi.

Shu sababli, O‘zbekiston sharoitida raqamli suverenitetni yanada samarali ta’minlash uchun huquqiy tizimni rivojlantirishda muvozanatli yondashuv zarur: bir tomondan, davlatning kibermakondagi nazorat va xavfsizlik funksiyalarini kuchaytirish, ikkinchi tomondan esa fuqarolarning raqamli huquqlari va ma’lumotlar ustidan avtonomiyasini mustahkamlash talab etiladi. Aynan shu ikki yo‘nalish uyg‘unligi raqamli suverenitetning barqaror modelini shakllantirishga xizmat qiladi. 12 ITU Resolution 102 (Rev. Bucharest, 2022), ITU's role with regard to international public policy issues pertaining to the Internet, https://sdgs.un.org/un-system-sdg-implementation/international- telecommunication-union-itu-54247. 13 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6079-son Farmoni (5 oktyabr 2020), "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi; https://lex.uz/ru/docs/-5030957

V. Xulosa

Raqamli suverenitet O‘zbekistonda tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda, chunki mamlakat iqtisodiyoti, davlat boshqaruvi va fuqarolarning kundalik hayoti tobora raqamli texnologiyalar bilan bog‘liq. Bu tushuncha davlatga o‘z raqamli makonini boshqarish, mahalliy ma’lumotlar, texnologiyalar va tarmoqlar ustidan nazorat o‘rnatish imkonini beradi. Shu bois, ma’lumotlarni himoya qilish tizimini kuchaytirish, fuqarolarning shaxsiy ma’lumotlarini xorijiy kompaniyalar orqali nazorat qilinishidan himoya qilish, mahalliy texnologiyalarni rivojlantirish, o‘zbekiston kompaniyalari va dasturchilarini qo‘llab-quvvatlash, mahalliy dasturiy ta’minot va platformalarni ishlab chiqishni rag‘batlantirish muhimdir. Shu bilan birga, raqamli infratuzilmani mustahkamlash, davlat serverlari, bulut xizmatlari va tarmoqlarni mustaqil boshqarish imkoniyatini oshirish ham e’tibordan chetda qolmasligi kerak. Xavfsizlikni oshirish uchun kiberxavfsizlikni mustahkamlash, internet va raqamli xizmatlarni tartibga soluvchi qonunlarni xalqaro standartlarga moslashtirish, fuqarolarni raqamli savodxonlik bilan ta’minlash, shaxsiy ma’lumotlar va onlayn xavfsizlikni himoya qilish bo‘yicha odamlarni o‘qitish zarur. Bundan tashqari, xorijiy texnologiyalarga qaramlikni kamaytirish, asosiy xizmatlar va platformalarda mahalliy alternativalarni yaratish orqali O‘zbekiston o‘z raqamli makonini nazorat qiladi, xavfsizlikni oshiradi va raqamli iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta’minlaydi deb hisoblayman.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. World Economic Forum, "What is digital sovereignty and how are countries
2. approaching it?" (10 January 2025),
3. https://www.weforum.org/stories/2025/01/europe-digital-sovereignty/.
4. Julia Pohle and Thorsten Thiel, "Digital sovereignty," Internet Policy Review, (17 December 2020), https://doi.org/10.14763/2020.4.1532.
5. European Centre for Development Policy Management (ECDPM), "Global approaches to digital sovereignty: competing definitions and contrasting policies," Discussion Paper No. 344 (2023), p. 7, https://ecdpm.org/application/files/7816/8485/0476/Global-approaches-digital-

sovereignty-competing-definitions-contrasting-policy-ECDPM-Discussion- Paper-344-2023.pdf.

6. Immuta, "Data Localization: A Complete Overview" (January 2026), https://www.immuta.com/blog/data-localization/; Captain Compliance, "Data Localization Laws By Country" (June 2024).
7. Regulation (EU) 2016/679 (GDPR), 44–46-moddalar, https://gdpr-info.eu.
8. NPR, "Brazil starts blocking X amid dispute with Elon Musk" (30 August 2024), https://www.npr.org/2024/08/30/nx-s1-5096220/.
9. Margarita Robles-Carrillo, "Sovereignty vs. Digital Sovereignty," Journal of Digital Technologies and Law, (2023), https://doi.org/10.21202/jdtl.2023.29.
10. ITU Resolution 102 (Rev. Bucharest, 2022); UN General Assembly, Global Digital Compact, adopted at Summit of the Future (September 2024). 2. Regulation (EU) 2016/679 of the European Parliament and of the Council (Genal Data Protection Regulation), 2016.
11. Association for Progressive Communications, "UN General Assembly adopts record number of resolutions on internet governance," https://www.apc.org/en/news/un-general-assembly-adopts-record-number- resolutions-internet-governance-and-policy-mixed.
12. ITU Resolution 102 (Rev. Bucharest, 2022), ITU's role with regard to international public policy issues pertaining to the Internet, https://sdgs.un.org/un-system-sdg-implementation/international- telecommunication-union-itu-54247.
13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6079-son Farmoni (5 oktyabr 2020), "Raqamli O'zbekiston — 2030" strategiyasi; https://lex.uz/ru/docs/-5030957 3. Universal Declaration of Human Rights (UDHR), adopted by the United Nations General Assembly, 1948.